

**“O‘ZBEKTELEKOM”AK CHIQINDILARNI
BOSHQARISH SIYOSATI**

CONTENTS

I Umumiy qoidalar	3
II Siyosatning maqsadlari va yo‘nalishlari	3
III Vazifalar	3
IV Chiqindilarni boshqarish tamoyillari	3
V Tadbirlar rejasi	4
5.1. Chiqindilarni kompleks auditdan o‘tkazish.....	4
5.2. Ichki reglamentlarni ishlab chiqish	4
5.3. Alohida yig‘ish tizimini joriy etish.....	4
5.4. Xavfli va elektron chiqindilarni saqlashni tashkil etish	4
5.5. Litsenziyaga ega qayta ishlovchilar bilan shartnoma tuzish	4
5.6. Chiqindilar hisobini yuritish tizimini yaratish	4
5.7. Mijozlardan eski uskunalarni yig‘ish dasturini yo‘lga qo‘yish.....	4
5.8. Xodimlarni o‘qitish.....	4
5.9. Hujjat aylanishini to‘liq raqamlashtirish.....	4
5.10. Rahbariyat va xodimlar uchun ekologik KPI joriy etish	5
5.11. Monitoring va muntazam hisobot.....	5
5.12. Sertifikatlash va audit	5
VI Mas’uliyat va nazorat	5
VII Xulosa.....	5

I Umumiy qoidalar

Mazkur Siyosat “O‘zbektelekom” AK faoliyati jarayonida, jumladan, ofis, texnik va logistika infratuzilmasida hosil bo‘ladigan chiqindilarni samarali boshqarish bo‘yicha maqsadlar, tamoyillar va tadbirlarni belgilaydi. Chiqindilarni boshqarish kompaniya barqaror rivojlanish strategiyasi va korporativ mas‘uliyatining muhim qismi hisoblanadi.

Mazkur siyosat “O‘zbektelekom” AKning barcha sho‘ba tashkilotlari va xodimlari, jumladan, filiallar va sho‘ba korxonalari tomonidan majburiy ravishda qo‘llaniladi. Filiallar va sho‘ba korxonalari rahbarlari hamda xodimlari mazkur siyosat qoidalarini mahalliy qonunchilik va ichki tartib-qoidalar doirasida joriy etish, moslashtirish va amalga oshirish uchun javobgar hisoblanadi.

II Siyosatning maqsadlari va yo‘nalishlari

Chiqindilar bilan ishlashda xavfsiz, iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik jihatdan barqaror yondashuvni ta‘minlash, jumladan:

- Elektron chiqindilar (e-waste): tarmoq uskunalari, modemlar, telefonlar, akkumulyatorlar va boshqalar;
- Ofis chiqindilari: qog‘oz, plastmassa, karton, kartrijlilar va boshqalar;
- Ishlab chiqarish va qurilish chiqindilari (uskunalarni o‘rnatish va demontaj qilish jarayonida);
- Xavfli chiqindilar: batareyalar, kabellar, freonlar, moylar va boshqalar.

III Vazifalar

Mazkur siyosat doirasida “O‘zbektelekom” AK quyidagi vazifalarni belgilaydi:

- Chiqindilar hosil bo‘lishini minimallashtirish;
- Chiqindilarni alohida yig‘ish, hisobga olish va xavfsiz bartaraf etishni ta‘minlash;
- Xodimlarning ekologik xabardorlik darajasini oshirish;
- Mijozlarni eski qurilmalarni yig‘ish tashabbuslariga jalb qilish;
- Milliy qonunlar va xalqaro standartlarga (jumladan, ISO 14001 va ISO 50001) muvofiqlikni ta‘minlash.

IV Chiqindilarni boshqarish tamoyillari

Chiqindilar bilan ishlash iyerarxiyasi: oldini olish → kamaytirish → qayta foydalanish → qayta ishlash utilizatsiya.

Har bir xodimning ekologik talablarni bajarishdagi mas‘uliyati.

Shaffoflik: chiqindilarni boshqarish bo‘yicha hisob yuritish, monitoring va muntazam hisobot taqdim etish.

Ekologiya sohasidagi qo‘shma loyihalar doirasida sertifikatlangan qayta ishlovchilar va ekologik tashkilotlar bilan shartnomaviy sheriklik va hamkorlik.

V Tadbirlar rejasi

5.1. Chiqindilarni kompleks auditdan o'tkazish

Kompaniya faoliyati jarayonida hosil bo'ladigan barcha turdagi chiqindilar — elektron, ofis, qurilish, xavfli va maishiy chiqindilar bo'yicha inventarizatsiya o'tkazish. Bu chiqindilar hajmi, manbalari va turlarini baholash hamda samarali yechimlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

5.2. Ichki reglamentlarni ishlab chiqish

Har bir turdagi bo'linma (ofis, ombor, texnik xizmatlar va boshqalar) uchun chiqindilar bilan ishlash bo'yicha yo'riqnomalar va tartib-qoidalarni ishlab chiqish, jumladan, chiqindilarni yig'ish, saqlash, topshirish va utilizatsiya qilish talablarini belgilash.

5.3. Alohida yig'ish tizimini joriy etish

Barcha ofislar, servis markazlari va texnik obyektlarda qog'oz, plastmassa, elektron va boshqa chiqindilarni alohida yig'ishni tashkil etish. Belgilangan belgilar bilan konteynerlar o'rnatish va xodimlarni tegishli tarzda o'qitish.

5.4. Xavfli va elektron chiqindilarni saqlashni tashkil etish

Xavfsizlik, shamollatish va kirish talablari inobatga olingan holda xavfli va elektron chiqindilarni vaqtincha saqlash uchun maxsus zonalarini belgilash.

5.5. Litsenziyaga ega qayta ishlovchilar bilan shartnoma tuzish

Akkreditatsiyadan o'tgan chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo'yicha kompaniyalarni tanlash hamda ular bilan rasmiy shartnomalar tuzish. Majburiy tartibda — e-waste, akkumulyatorlar, kabellar va boshqa materiallarni litsenziyaga ega tashkilotlarga topshirish.

5.6. Chiqindilar hisobini yuritish tizimini yaratish

Har bir chiqindi oqimi hajmi, turi va yo'nalishini qayd etuvchi elektron tizimni (masalan, ERP yoki BI modulida) ishlab chiqish yoki joriy etish. Bu shaffoflik va nazoratni ta'minlaydi.

5.7. Mijozlardan eski uskunalarni yig'ish dasturini yo'lga qo'yish

Mijozlardan ishlatilgan routerlar, modemlar va boshqa qurilmalarni yig'ishga qaratilgan tashabbusni tashkil etish. Qayta foydalanish yoki ekologik utilizatsiyani ofislar va kuryerlik xizmatlari orqali amalga oshirish.

5.8. Xodimlarni o'qitish

Chiqindilar bilan xavfsiz ishlash, barqaror iste'mol tamoyillari va korporativ ekologik mas'uliyat bo'yicha o'quv treninglari va yo'riqnomalar o'tkazish. Dastur muntazam yangilanadi. Ichki va tashqi seminarlar, treninglar hamda ta'lim kurslarini o'tkazish uchun malakali yoki vakolatli tashkilotlarni jalb qilish.

5.9. Hujjat aylanishini to'liq raqamlashtirish

Qog'oz chiqindilarini kamaytirish maqsadida ichki hujjat aylanishini yuz foiz elektron shaklga o'tkazish. Elektron imzolar, arxivlar, avtomatlashtirilgan arizalar va boshqa vositalarni joriy etish.

5.10. Rahbariyat va xodimlar uchun ekologik KPI joriy etish

Barcha filiallar va asosiy bo'linmalar uchun chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash darajasi bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilash.

5.11. Monitoring va muntazam hisobot

Chiqindilar miqdori, qayta ishlash ulushi, qoidabuzarliklar va tuzatish choralarini har chorakda monitoring qilish. Natijalarni korporativ barqaror rivojlanish (ESG) hisobotiga kiritish.

5.12. Sertifikatlash va audit

ISO 14001 va 50001 talablariga muvofiqlik bo'yicha yillik tekshiruvlardan o'tish, shuningdek, chiqindilar bilan ishlash bo'yicha ichki auditlarni o'tkazish.

VI Mas'uliyat va nazorat

Chiqindilarni boshqarish siyosatini amalga oshirish bo'yicha majburiyatlar kompaniyaning turli darajalari va bo'linmalari o'rtasida taqsimlanadi:

Kompaniya rahbariyati siyosatni strategik tasdiqlash, zarur resurslar bilan ta'minlash va barqaror rivojlanish korporativ madaniyatini shakllantirish uchun javobgar.

Bo'limlar va bo'linmalar mas'ul xodimlari metodologiya ishlab chiqish, hisob yuritish, tadbirlarni bajarilishini monitoring qilish va chiqindilar bo'yicha hisobot tayyorlash, shuningdek, chiqindilar hisobini avtomatlashtirish, hujjat aylanishini raqamlashtirish va barcha jarayonlarda shaffoflikni ta'minlash uchun javobgar.

Texnik va muhandislik xodimlari uskunalar bilan xavfsiz ishlash va aloqa obyektlarida chiqindilar bilan ishlash qoidalariga rioya etishni ta'minlaydi.

Ombor va logistika xizmatlari chiqindilarni to'g'ri saqlash, saralash va maxsus tashkilotlarga topshirish uchun javobgar.

Ofis va servis markazlari xodimlari chiqindilarni alohida yig'ish reglamentlariga rioya etishi va resurslarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishi shart.

Telekommunikatsiya va kadrlar rivojlantirish markazi xodimlarni muntazam o'qitish, xabardor qilish va ekologik siyosatni amalga oshirishga jalb etishni tashkil qiladi.

VII Xulosa

Barqaror chiqindilarni boshqarish — bu faqat ekologik majburiyat emas, balki “O'zbektelekom” AK korporativ mas'uliyati va operatsion samaradorligining strategik elementi hisoblanadi.

Mazkur siyosatni amalga oshirish quyidagilarga imkon beradi:

- atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish;
- ichki jarayonlarni optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirish;
- qonunchilik va xalqaro standartlar talablariga muvofiq bo'lish;
- mijozlar, investorlar va hamkorlar orasida kompaniya obro'sini mustahkamlash;

- barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga hissa qo'shish.

“O‘zbektelekom” AK qonunchilikdagi va texnologik yutuqlardagi o‘zgarishlarga muvofiq ravishda siyosatni muntazam qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish majburiyatini oladi. “O‘zbektelekom” AKning barcha xodimlari, pudratchilari va hamkorlari ekologik mas’uliyat tamoyillarini qo‘llab-quvvatlash hamda mazkur siyosatda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirishda faol ishtirok etishi shart.